


ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



VOLUME 3, ISSUE 5 **2025**

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 5 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HOMEP 5

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 5



«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MA'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№5 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2025-5>

Бош муҳаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Бош муҳаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent Ma'mun Universiteti NTM

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI (INGLIZ TILI)

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Kalandarov Oybek Ruzimbayevich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Yakubov Muzaffar Kamildjanovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Samandarova Lola Sultanovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

FILOLOGIYA FANLARI (RUS TILI)

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Ruzmetov Surojbek Allaberganovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (NEMIS)

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (O'ZBEK TILI)

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Goncharov Yuriy Mixaylovich

Tarix fanlari doktori, professor
Altay davlat universiteti Rossiya

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent
Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),
dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyozova Mamlakat Tojiyevna

Tarix fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Urganch davlat universiteti

Xo'jamuratov Umarjon Rustamovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch pedagogika instituti

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor
Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor
Grodno davlat universiteti Belorusiya

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'gli

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Slepko Yuriy Nikolayevich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Yaroslav davlat pedagogika universiteti

Xazova Svetlana Abduraxmanovna

Psixologiya fanlari doktori, dotsent Kostroma
davlat universiteti Belorusiya

Kalandarova Madina Baxadirovna

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Nazarova Maloxat Berdiboyevna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Xudaynazarova Salomat Ruzibaevna

Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Sultanov Samandar Maxmud o'g'li

Arxeolog (tadqiqotchi pedagog)

Ma'mun Universiteti NTM

FILOLOGIYA

1. Yakubova Matluba Tajiboevna SHEVAGA XOS LEKSIK BIRLIKLARNING ERKIN SAMANDAR SHE'RIYATIDAGI BADIY AHAMIYATI.....	8
2. Rayxan Madaminova HOFIZ XORAZMIY "DEVON"IDAGI MA'NODOSH SO'ZLAR TAHLILI.....	17
3. Yangibayeva Nodira, Rahimova Mohigul HAYOT-MAMOT MOTIVINING IKKI XIL BADIY TALQINI.....	25
4. Niyazmetova Shahlo Adamboyevna ULUG'BEK HAMDAM SHE'RLARIDA PARALLELIZMLARNING QO'LLANILISHI VA O'ZIGA XOSLIGI.....	31
5. Pirmatova Ozodaxon Saparboyevna SHOLICHILIK LEKSIKASI VA GURUCHLI TAOM NOMLARINING LEKSIK-GRAMMATIK XUSUSIYATLARI.....	35
6. Jumanyazova Muxabbat Xusinovna XORAZM XALQ QO'SHIQLARI LEKSIKASIDAGI AYRIM SO'ZLARNING ETIMOLOGIYASI XUSUSIDA.....	40
7. Fayzullaeva Rukhshona Lutfulloevna, Melikova Martaba Numonovna INFLUENCE OF GLOBALIZATION ON THE COMMUNICATION PROCESS.....	44
8. Raufjon Maxmudov, Anaxon Vapayeva O'ZBEK VA RUS TILLARI LEKSIKASIDA ENG YANGI QATLAM.....	51
9. Ихтиёр Бабаназаров XII ACP XORAZM ILMIIY-ADABIY MUHOJITI DA MAHMUD ZAMAXSHARIYNING TUTGAN UYRI.....	56
10. Rayxan Madaminova HOFIZ XORAZMIY "DEVON"IDAGI KO'P MA'NOLI LEKSIK BIRLIKLARNING ASARDAGI O'RNI.....	62
11. Abdullayeva Poshshajon Usmon qizi FRAZEOLGIK BIRLIKLAR VA ULARNING O'RGANILISHI.....	69
12. Matyakubova Surayyo Abdullayevna OGAHIYNING TARIXIY ASARLARIDA QO'SHMA FE'LLAR SINONIMIYASI.....	73
13. Xo'jamurodova Iroda Anvar qizi SEMIOTIKA: NAZARIY ASOSLAR VA TADQIQOTLAR.....	78

IQTISODIYOT

1. Karimova Madina

XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIIY XUSUSIYATLARI VA TADBIRKORLIK KO'NIKMALARINI BAHOLASH.....83

2. Baxtiyarova Sabohat Baxtiyarovna

STRATEGIK MENEJMENTNING O'ZBEKISTON SHAROITIDAGI TATBIQI.....91

PEDAGOGIKA

1. Davletov Erkaboy Yusbovich

BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARIDA TAYANCH HAYOTIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI.....95

2. Usanova Zulfiya Bozorovna

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING GENEZISI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI...98

3. Odinaeva Gulshoda Shavkatovna

TARBIYA DARSLARI VOSITASIDA O'QUVCHILARDA IJTIMOIIY DAXLDORLIK TUYG'ULARINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI.....102

PSIXOLOGIYA

1. Raximov Bobur, Radjapova Dilnura

SHAXS IJTIMOIIYLASHUVINING PSIXOLOGIK ASOSLARI.....107

TARIX

1. Babajanova Nilufar Alisherovna

QUYI AMUDARYO TARIXIIY-GEOGRAFIK REGIONIDA URBANISTIK JARAYONLAR. AHOLINING JOYLASHISHI VA TARIXIIY TARAQQIIYOT SAHIFASI.....111

2. Bekchanov Doniyor

XORAZM JADIDLARI QARASHLARIDA DAVLAT VA JAMIYAT HAYOTINI MODERNIZATSIYALASH MASALALARI.....115

3. Tajiyeva Umida Rajabboevna

O'ZBEK XALQII MADANIYATIDA TABIIATGA MUNOSABATNING BA'ZI MASALALARI.....119

4. Tilovboyeva Mardona Aybekovna

O'RTA OSIYO MINTAQASI TABIIY-GEOGRAFIK HOLATI, HUDUDIIY CHEGARALARI MASALALARIGA DOIR BA'ZI CHIZGILAR.....123

5. Исмаилов Улугбек Сапарбой огли

ПРОБЛЕМА ХИЩНИКОВ В ЭКОЛОГИИ ДРЕВНЕГО ПЕРИОДА ХОРЕЗМСКОГО ОАЗИСА.....127

6. Rajabova Zuhra Sa'dullayevna, Raximova Intizor Rustamovna

XIX ASR OXIRI-XX ASR BOSHIDA TURKISTONDA TA'LIM TIZIMI TRANSFORMATSIYASINING BA'ZI MASALALARI.....132

7. Marimov Muzaffar Erkinovich XX ASRNING 20-30-YILLARI XORAZM OKRUGIDA SOG‘LIKNI SAQLASH SOHASI VA UNDAGI O‘ZGARISHLAR.....	137
8. Bekchanov Doniyor AVAZ O‘TAR QARASHLARIDA JADIDCHILIK G‘OYALARI.....	141
9. Sultanov Samandar Mahmud o‘g‘li XORAZM VOHASI VA G‘ARBIY SO‘G‘D HUDUDLARINING GEOGRAFIK SHAROITI, HUDUDIIY CHEGARALARI MASALALARI.....	145
10. Abdullayev Abdurasul Abdulpattoevich QUR‘ONI KARIM OYATLARINI TAVIL QILISHDA ISHORIY TAFSIRLARNI O‘RNI.....	149
11. Misrbekova Makhliyo THE REPRESENTATION OF USTRUSHANA’S HISTORY IN NUMISMATIC SOURCES...	155
12. Bekimbetov Bahodir Mirzabaevich YANGI O‘ZBEKISTONDA OROL FOJIASINI HAL ETISHGA YONDASHUVNING TUBDAN O‘ZGARISHI VA UNING NATIJALARI.....	161
13. Xayitmuratova Zaynura G‘aybullayevna QADIMGI MARKAZIIY OSIYO XALQLARINING METROLOGIK TIZIMI: O‘LCHOV BIRLIKLARINING PAYDO BO‘LISHI VA RIVOJLANISHI.....	167

Raufjon Maxmudov-

f.f.d., k.i.x., Xorazm Ma'mun akademiyasi

Anaxon Vapayeva-

Ma'mun universiteti

O'ZBEK VA RUS TILLARI LEKSIKASIDA ENG YANGI QATLAM

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15670082>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'zbek va rus tili leksikasiga kirib kelgan eng yangi o'zlashma so'zlarning o'zlashish omillari va ularga xos xususiyatlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: leksik birlik, o'zlashma so'z, neologizm, leksika, ekstralingvistik omil.

Рауфжон Махмудов –

доктор филологических наук, профессор,

Хорезмская академия Мамуна

Анахон Вапаева –

Университет Мамуна

САМЫЙ НОВЫЙ СЛОЙ В ЛЕКСИКЕ УЗБЕКСКОГО И РУССКОГО ЯЗЫКОВ

АННОТАЦИЯ

В данной статье проанализированы факторы усвоения новейших заимствований слов, вошедших в лексику узбекского и русского языков, и их особенности.

Ключевые слова: лексическая единица, заимствования, неологизм, лексика, экстралингвистический фактор.

Raufjon Mahmudov –

Doctor of Philological Sciences, Professor,

Khorezm Mamun Academy

Anakhon Vapayeva –

Mamun University

THE MOST RECENT LAYER IN THE LEXICON OF THE UZBEK AND RUSSIAN LANGUAGES

ANNOTATION

This article analyzes the factors of assimilation of the latest borrowings of words included in the vocabulary of the Uzbek and Russian languages, and their features.

Key words: lexical unit, borrowings, neologism, vocabulary, extralinguistic factor.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Har qanday tilning o'z rivojlanish tendensiyalari, an'ana va tamoyillari, yo'nalishlari, so'z boyligini oshirish manbalari, usullari, so'zlarni qo'llash sohalari, so'z o'zlashtirish prinsiplari, himoyalaniş funksiyasi va boshqa juhatlari mavjuddir. Umuman olganda, tilni bir tirik voqelik deya tasavvur qilish yanada to'g'ri bo'ladi. Uning o'z umri, o'z hayoti mavjud, uning o'ziga xos xarakteri, ayni paytda, boshqa hech bir tilga o'xshamagan o'zligi – mentaliteti mavjud. Tilning ushbu o'ziga xosliklari shu tilda so'zlashuvchi xalqning o'ziga xosliklari bilan chambarchas bog'liq holda paydo bo'ladi, rivojlanadi va yo'qoladi. Shu jumladan, o'zbek tili ham.

O'zbek xalqiga xos bo'lgan mehmondo'stlik, ochiqfe'llik xarakteri o'zbek tilida ham o'zini namoyon qiladi. Xususan, og'zaki so'zlashuv tilidagi o'zlashmalarga boy leksika bunga yaqqol isbot bo'la oladi. Albatta, bu jarayonda tilning himoyalaniş funksiyasi ham o'zini namoyon qiladi. O'zlashma faqat shu sohadagina qo'llanadi, tilning barcha sathlari uchun xos birlik sifatida o'zini namoyon qila olmaydi.

METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI

Tadqiqotda qiyosiy-lisoniy tahlil, etimologik yondashuv, zamonaviy leksik qatlamni strukturalashtirish va funksional aspektda baholash usullari qo'llanildi. O'zbek va rus tillarining o'zlashmalar haqidagi klassik va zamonaviy manbalari, xususan, S.V.Muxin, E.Xaugen, L.V.Shcherba, L.P.Krisin kabi olimlarning qarashlari asos sifatida tanlandi.

Shu nuqtayi nazardan, o'zbek tilining og'zaki so'zlashuv tilida ijtimoiy hayotning ayrim sohalari uchungina xos bo'lgan so'zlar qatlami mavjudligi bugun barchamizga ma'lum. Ammo ushbu qatlamni o'zbek tilining ma'lum sathiga mansub deya xulosa chiqarishga shoshilmaslik kerak. Avvalo, buning o'zlashma qatlam deya baholanib kelinayotgan mazkur qatlamlarga oid birliklarga xos mezonlar ishlab chiqilishi va ayni qaysi mezonlar asosida ular o'zbek adabiy tili lug'at qatlamiga kirishi mumkinligini aniqlab olish zarur.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Lug'at sathlaridagi o'zlashma qatlamni belgilashninig o'ziga xos tamoyillari mavjud. Faqat bu tamoyillarni aniqlashtirish, konkretlashtirish, ularga xos birliklarni ajratish zarur. Ushbu tamoyillar o'zlashma qatlamga oid birliklarning til lug'at sathida nima sababdan paydo bo'lganini, qanday omillar tufayli xalq tilida keng istifoda etilayotganini aniqlashga yordam beradi.

Avvalo, nima uchun ularni *neoo'zlashma* deb atadik. O'zbek tilining o'zlashma qatlamiga xos birliklar asosan uch guruhga ajratiladi: 1) arabiy qatlam; 2) forsiy qatlam; 3) ruscha-baynalmilal so'zlar. O'zbek tili lug'atida har bir guruhga xos birliklar mavjud. So'nggi davrda o'zlashgan so'zlarni neologizm deb atash tilshunosligimizda odat tusiga kirgan. Ammo neologizm bu tilning ma'lum sathida o'z o'rniga ega bo'lgan, til nuqtayi nazaridan tahlil va tadqiq qilinadigan, izohli, imlo lug'atlarida aks etgan, o'z izohi, denotatiga ega bo'lgan leksik birlik.

Neoo'zlashma – bu so'nggi yillarda internet tarmog'i, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarning jamiyat hayotiga chuqur kirib borayotganligi, insoniyatning virtual olamga yanada chuqur bog'lanib borayotganligi, jamiyat hayotidagi yangiliklar, o'zgarishlar televideniye, radio va boshqa OAV vositalaridan ko'ra ijtimoiy tarmoqlarda, internetda tez aks sado berayotganligi, hatto ishlab chiqaruvchilarning o'z mahsulotini televideniye va radiodan ko'ra, eng avvalo, ijtimoiy tarmoqlarda, internet sahifalarida reklama qilishga intilayotganligi, sportning yangi turlari paydo bo'layotganligi, yoxud mavjud sport turlari atamalarining inglizcha variantlarini ko'proq ishlatishga intilayotganligimiz, televideniyeidagi ko'rsatuvlar chet el telekanallaridagi ko'rsatuvlardan nusxa olish natijasida paydo bo'lganligi bois, nom o'zlashtirish jarayoni ham kuchayib borayotganligi tufayli og'zaki so'zlashuv tilimizga yoppasiga kirib kelayotgan so'zlardir.

Albatta, ta'kidlanganidek, o'zlashmalarning biror tilga kirib borishida ma'lum mezonlar, tamoyillar, qonuniyatlar amal qiladi. Biz quyida ana shu jihatlarga alohida etibor qaratamiz.

Eng avvalo, tildagi o'zlashma qatlam birligi bo'lgan olinma so'z nima ekanligiga to'xtalsak. O'zlashma – bu ma'lum til birligining xalqlarning o'zaro (qo'shima, so'z, birikma kabi) ijtimoiy, siyosiy, madaniy-ma'rifiy, harbiy va boshqa sohalardagi aloqalari natijasida boshqa til lug'at tarkibiga olinishi jarayonidir. Bu to'g'risida rus tilshunosligida g'am o'ziga xos ta'rif mavjud: "O'zlashtirish – lingvistik aloqalar natijasida bir tildan boshqa tilga o'tgan chet tilining

elementi(soʻz, ibora, morfema, fonema), shuningdek, bir til elementlarining boshqa tilga oʻtish jarayonidir. Odatda soʻzlar yoki sintaktik birikmalar oʻzlashtiriladi. Biroq hozirgi vaqtda tilshunoslik sohasida oʻzlashtirish mavzusi munozarali boʻlib, “oʻzlashtirish” atamasini talqin qilishda ayrim qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda [1]

Chunonchi, tilning lugʻat qatlamiga kirgan va xalq keng istifoda etayotgan oʻzlashmalar qatlami mavjud. Ular tilning barcha qatlamlarida faol tahlil qilinadi. Lekin tilga kirib kelayotgan yuqorida tahlil qilganimiz neoʻzlashmalar – tilning barcha qatlamlariga kirib bormagan, faqat shu tilda soʻzlashuvchilarning ayrim qatlamidagina ogʻxaki soʻzlashuv nutqida faol qoʻllanilib kelayotgan yangi soʻzlar qatlami mavjud. Ularni dastlabki taʼkidlashda oʻzlashma deb aytamiz. Lekin ular toʻlaqonli neologizmlar qatorida boʻlmaydi. Shu sabab neologizm va neoʻzlashma atamalarini farqlab qoʻllashni ishimizda maʼqul koʻrdik. Lekin neoʻzlashma soʻzi hali ommalashmagan. U faqat tadqiqot jarayonida ikki guruh oʻzlashmalarini oʻzaro farqlash uchun istifoda etilmoqda.

Oʻzlashtirish jarayonidagi ushbu tahlil talab oʻrin mavjud muammolardan birisi, xolos. Muxin S.V. oʻzlashtirishni lingvistik jarayon va shu jarayonning natijasi oʻlaroq oʻziga xos oʻzlashtirilgan leksik birlik sifatida izohlaydi [2]

Rus tilshunosligida XX asrdan boshlab ushbu tushunchaning dastlabki taʼriflari paydo boʻldi. Rus tadqiqotchisi L.V.Sherba “tillarning aralashishi” tushunchasini oʻz tadqiqotlarida “tillarning oʻzaro taʼsiri” tushunchasi bilan almashtirdi. Xuddi shu asarida olim ikki jarayonni ajratib koʻrsatdi: soʻz oʻzlashtirish va tillarning aralashuvi. Olim ularning oʻzaro oʻxshashligi va faqli jihatlariga ham eʼtibor qaratish lozimligini taʼkidlaydi. Chunki “birinchisi ikki tillilikka [...], yaʼni bir shaxsda ikki tilning mutaqil asoslanadi, ikkinchisi esa ikki atama bilan aralashgan tilga asoslanadi” [5]

Boshqa bir tilshunos olim E.Xaugen interferensiya haqida gapirib quyidagicha fikrni ilgari suradi: “bu ikki yoki undan ortiq tillarni bilishi natijasida ikki tilda soʻzlashuvchilar nutqida paydo boʻladigan maʼlum bir til normalaridan chetga chiqish hollaridir”. [4] Darhaqiqat, bugun biz taaʼkidlayotgan neoʻzlashmalar aynan interferensiya natijasida paydo boʻlmoqda. Yaʼni chet tillarini oʻrganishga boʻlgan talab va ehtiyoj bugun kundan kunga oʻsib bormoqda. Natijada xalq vakillari oʻzlari tanishgan boshqa til birliklarini oʻz nutqida qoʻllamoqda. Uning yaqinlari orasida esa unga ergashishga, undan namuna olishga intiluvchilar ham topilmoqda. Bu omil esa chet tillari birliklarining ogʻzaki soʻzlashuv nutqimizda oshib borishiga saba boʻlmoqda. Tadqiqotchi E.Xaugen oʻz asarida tillarning oʻzaro aloqalari haqida fikr yuritganida “soʻz oʻzlashtirish” terminidan foydalandi.

L.P.Krisin oʻz asarlarida soʻz oʻzlashtirish jarayonini “turli elementlarni bir tildan ikkinchi tilga oʻtkazish jarayoni” deb aytadi. Unda asosiy eʼtibor tilning elementlari (morfologiya, fonologiya, sintaksis, semantika) oʻzlashish jarayoni bosqichlaridan oʻta olish darajasiga qaratiladi.

Tilshunoslarning fikriga koʻra tillarning oʻzaro aloqalari va uning natijasi oʻlaroq yuzaga keluvchi soʻz oʻzlashtirish jarayoni mutlaqo tabiiy holdir. Eng avvalo, hech bir til mustaqil, maʼlum qobiqqa oʻralgan holda rivojlana olmaydi. Ikkinchidan, tillarning oʻzaro aloqasi shu tilda soʻzlashuvchi xalqlarning aloqasi negizida vujudga keladi. Demak, bundan kelib chiqadiki, hech bir xalq mustaqil, maʼlum davlatlar, milatlar bilan texnik, ijtimoiy, siyosiy, harbiy va boshqa sohalarida aloqa oʻrnatmagan holda rivojlana olmaydi. Biz koʻp hollarda soʻz oʻzlashtirish haqida soʻz yuritganda koʻpincha uning salbiy tomoni haqida, yaʼni tilning sofligiga putur yetkazishi, til lugʻat tarkibidagi mavjud soʻzning tez eskirishiga sabab boʻlishi, sinonimik qatordagi yangi oʻzlashmadan keng foydalanish tufayli dominant soʻz oʻzgarishi yoki sinonimik qatordagi oldingi soʻzlarning isteʼmoldan chiqib ketishi kabi muammolarga eʼtibor qaratamiz. Masalan rus tilida *ogranichivat* – *likvidirovat*, *podrostok* – *tineydjer*, *obshitelniy* – *kommunikabelnyy* kabi soʻzlar bugun oʻz oʻrnini yangisiga boʻshatib berayotgan boʻlsa, oʻzbek tilida *nomlash* – *neyming*, *gʻolib* – *vinner*, *darvozabon* – *golkipper*, *boʻlim* – *sektor*, *shoʻba* – *seksiya*, *jinsiy* – *gender* kabi oʻnlab, balki yuzlab soʻzlar (asrlar davomida *ulus* – *xalq*, *qoʻshin* – *armiya*, *chechak* – *gul* kabi turkiy soʻz oʻrnida arabiy, forsiy, ruscha-baynalmilal soʻz qoʻllanganidek) oʻz oʻrnini yangi oʻzlashmalarga boʻshatib bermoqda. Aslida tillarning oʻzaro aloqasi natijasida tilning lugʻat tarkibi boyishi, rang-barang

bo'lishi, sinonimiya hodisasida turli ma'no qirralari paydo bo'lishi kabi ijobiy jihatlar ham mavjudligini ta'kidlashimiz zarur.

Tillarning o'zaro aloqalari natijasi hisoblanmish o'zlashmalarning til lug'at qatlamiga qabul qilinishining ham turli sabab va omillar mavjud. Tillarning lug'aviy tarkibini shakllantirishda o'zlashmalarning ahamiyati katta. So'z o'zlashtirish, odatda, ikki yo'l bilan amalga oshiriladi – og'zaki va yozma. Og'zaki usulda so'z o'zlashtirish talaffuzga asoslanganligi sababli so'zning fonetik qobig'ida o'zgarishlar bo'lishi ehtimoli katta.

Tilshunos olimlar ma'lum tilda o'zlashma so'zlar paydo bo'lishining quyidagi sabablarini ta'kidlaydilar:

1) xalqlarning tarixiy aloqalari, o'zaro ta'sir jarayonlari, madaniyat va an'analar almashinuvi (o'zbek xalqining asrlar davomida arab va fors xalqlari bilan madaniy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy va boshqa sohalaridagi aloqalari natijasida o'zlashgan *sarboz, ulamo, fiqh, she'r, ash'or* kabi ko'plab o'zlashmalar; rus xalqi bilan o'zaro madaniy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy, harbiy-strategik va boshqa sohalaridagi aloqalar natijasi o'laroq o'zlashgan *tank, armiya, artilleriya, teatr, ssenariy, studiya* kabi o'zlashma so'zlar shular jumlasidandir);

2) yangi tushunchalar va hodisalarni nomlash zarurati (XX asrdan boshlab xalqlar hayotida texnika-texnologiya evrilishi yuz berdi, dunyoning barcha mamlakatlariga bu evrilish natijalari – yangi-yangi texnikalar kirib bordi. XXI asrda yana bir evrilish yuz berdi – bu, albatta, kompyuter texnologiyalari va xalqaro internet tarmog'i, keyinchalik ijtimoiy tarmoqlar va, umuman, virtual dunyo bilan bog'liq. Har bir yangilik – yangi tushuncha nomlashni talab qilganligi bois ushbu kashfiyotlar bilan birgalikda ularning nomlari ham barcha xalqlarning tillariga kirib bordi: *poyezd, radio, televizor, samalyot, telefon, kompyuter, printer, skaner, internet, blogger, gadjet* kabi o'zlashmalar ana shu yangi tushunchalar va hodisalarni nomlash zarurati tufayli o'zbek yoki rus tillariga kirib keldi);

3) har qanday faoliyat sohasidagi kashfiyot va yangiliklarni nomlash zarurati (dunyo olimlari tomonidan yaratilgan har qanday kashfiyot, ilmiy yangiliklarni ham nomlash zarurati mavjud. Ushbu nomlar ham kashfiyot va ilmiy yangilikning o'zi bilan birgalikda boshqa xalqlar hayotida va tiliga kirib boradi: *kvant, nanotexnologiya, nanobot, invitro, lazer, implantatsiya, klon* kabi o'zlashmalarning o'zbek va rus tillariga kirib kelishi ayni omil tufayli sodir bo'ldi);

4) tavsiflovchi ibora yoki birikma o'rniga o'zga tildagi muqobil bir so'zni ishlatish zarurati (*ko'p qavatli uy – dom, hovli uy – uchastka, uch kunlik oy – hilol, fazoviy kema – raketa, ish boshqaruvchi – menejer* kabi tilimizda yoki og'zaki nutqimizda qo'llanilib kelinayotgan ko'pgina o'zlashmalar ayni birikmalar, yoki tavsiflovchi iboralar o'rnida qo'llanadi. bunga asosiy sabab ularni talaffuzida kam energiya sarflanishidir);

5) asosan, fan-texnika sohalariga tegishli obyektlar yoki tushunchalarning alohida turini belgilash zarurati (*leksikologiya, sintaksis, fonetika* – kabi tilshunoslikka oid; *marketing, menejment* – kabi iqtisodga oid, *asteroid, meteorid, galaktika* – kabi astronomiyaga oid va, umuman, bugun barcha fan tarmoqlarida yuzlab o'zlashmalar mavjud. Ularning o'zbek yoki rus tiliga o'zlashtirilishi bu fan-texnika sohalaridagi xalqaro atamalarining tillarga keng tarqalishi va ularning bir xilligini ta'minlash bilan bog'liq);

Albatta, ma'lum tilga o'zlashmalar kirib kelishining yuqoridagi sabablari ayrim olimlar tomonidan ma'qullansa, ayrimlari ushbu omillar qatorida boshqalarini ham sanab o'tadilar. [3] Ayrim omillar tildagi o'zlashmalar paydo bo'lishiga sabab bo'la olmasligini ta'kidlaganlar ham uchraydi.

XULOSA

O'zbek va rus tillarida yuzaga kelayotgan neo'o'zlashmalar jarayoni tabiiy til rivoji va global lingvistik oqimlar bilan chambarchas bog'liq. Ushbu leksik qatlamni o'rganish, mezonlar asosida baholash va tasniflash zarurati bugungi tilshunoslik oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Neo'o'zlashmalar tilning og'zaki qatlamida avvalo paydo bo'ladi, keyin esa rasmiy tilda o'rnashish ehtimoli bilan harakatlanadi. Shu sababli ularni ilmiy asosda o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Iqtiboslar/References/Сноски

1. Большая российская энциклопедия. URL.: <https://bigenc.ru/linguistics/text/1985739> (дата обращения 06.11.2020)
2. Мухин С.В. Системно-функциональные характеристики фразеологической кальки французского происхождения в английском языке. М., 2005. С. 15
3. Р.Махмудов. Огаҳий тарихий асарларида ўзлашмалар. Филол. фан. док. дисс. Тошкент. 2022. –Б. 213.
4. Хауген Э. Языковой контакт. Новое в лингвистике. М., 1972. Вып. 6. С. 61-80
5. Щерба Л.В. О смешении языков. URL: <http://www.philology.ru/linguistics1/shcherba-74b.htm> (дата посещения 11.11.2020)

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 5 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HONEP 5

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 5

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадqiqот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000